Ternopol davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti V.I.Stoyan oʻz maqolasida ta’kidlaydiki, “Gʻaznachilik organlari budjetning daromadlar qismini kassa ijrosi jarayonida ishtirok etishi, ma’muriy-hududiy kesimda budjetlar resurslarini ham umumiy, ham daromadlarining alohida turlari boʻyicha miqdorini imkon fadar toʻgʻri aniqlashni maqsad qiladi. Tegishli budjetlar boʻyicha resurs bazasi hajmi toʻgʻrisidagi ma’lumotlar, budjet mablagʻlarining harakati va ularni hisobga olish tafsilotlarining mavjudligi davlat ijro hokimiyati va mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish oʻrganlariga resurslarni strategik va operativ boshqarish imkonin beradi” [8].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmonida ushbu tizim faoliyati uchun muhim chora-tadbirlar belgilangan oʻtildi [9].

Davlat xaridlari tovar xizmatlarini davlat buyutmachilari tomonidan oʻz ehtiyojlari uchun pulli asosda xarid qilish hisoblanadi. Oddiy soʻz bilan aytganda, har bir davlat buyurtmachisi, ya’ni bu korxona boʻladimi yoki budjet tashkiloti boʻladimi, u avvalam bor, oʻziga kerakli boʻlgan tovar xizmatlarini xarid qiladi. Davlat xaridlari platformasi ham, shu maqsadga xizmat qiladi. Mana oʻzingiz ham bozorga borganingizda, eng ma’qul, sifatli va arzon tovarni xarid qilasiz. Shunga oʻxshash bu tizim ham ana shunday bozorni yaratib beradigan platformadir.




1-rasm: Yillar kesimida davlat buyurmachilarining xaridlari [10]

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti ma’lumoti

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti ma’lumotilari boʻyicha tahlil qilsak 1-rasmda koʻrinib turibdiki, 2021-2023-yillar oraligʻida davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarini oʻrganib chiqsak, koʻrsatkichlardan koʻrinib turibdiki oʻsish sur’atlari jadvalda yaqqol nomayon. Ya’ni, 18.8 foizdan 23.8 foizga oʻsib borarayotganini kuzatish mumkin.




2-rasm: Vazirliklar kesimida budjet buyurtmachilarning davlat xaridlari [10]

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti ma'lumoti

Davlat buyurtmachilar davlat xaridlarini sohalar bo'yicha taqqoslab chiqsak 2-rasm bo'yicha amalga oshirilgan davlat xaridlarini vazirliklar miqyosida 2023-yil holatiga umumiy 58.4 trln so'mni tashkil etgan. Bunda maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 17.5 trln. so'm miqdori bilan faol o'rinda.

Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari muhim ahamiyatga ega.

Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik;
- asoslanganlik;
- moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- raqobat va xolislik;
- mutanosiblik;
- davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;
- korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik.

Moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi prinsipi davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini o'tkazish xarajatlarini va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatini hisobga olish;

- davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko'rilgan naf, ularning sifati va qiymati o'rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta'minlash;
- davlat xaridlarini maqbul muddatlarda o'tkazish imkonini beradigan oqilona va tejamkor usulda amalga oshirilishi kerak.

Davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligi:

- tegishli davlat organlariga, davlat xaridlarining subyektlariga va jamoatchilikka davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq, o'z vaqtida, erkin va bepul foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda uni maxsus axborot portaliga joylashtirish;
- xarid qilish tartib-taomillariga doir hujjatlarni va hisobotlarni tuzish hamda but saqlashni ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Davlat xaridlaridagi raqobat xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari o'rtasidagi, davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari o'rtasidagi va ixtisoslashgan tashkilotlar o'rtasidagi tortishuv, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishda hamda xolis va asosli mezonlar asosida eng maqbul taklif foydasiga yakuniy qaror qabul qilishda beg'arazlik va shaffoflik mexanizmlaridan foydalanish hisobidan qo'llab-quvvatlanadi.

Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishdagi, shuningdek, eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg'arazlikni nazarda tutadi.

Davlat xaridlarining xolisligi:

- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta'minlashga;

- davlat xaridlari subyektlari o‘rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg‘arazlikni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga;
- davlat xaridlari jarayonida shikoyatlar, nizolar va kelishmov-chiliklarni ko‘rib chiqishning hamda tegishli chora-tadbirlar ko‘rishning ochiq, oshkora va tortishuv mexanizmlariga asoslanadi.

## Mutanosiblik prinsipi

Davlat xaridlarida mutanosiblik:
- davlat xaridlarini amalga oshirish usulining tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavf-xatariga, qiymatiga, xususiyatiga va murakkabligiga;
- talablarning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari malakasiga oid ma’lumotlarga, takliflarni baholash mezonlari va usullarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga);
- davlat xaridlari subyektlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi ularning o‘z vazifalariga mosligi bilan ta’minlanadi.

## Davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi prinsipi

Davlat xaridlari maqsadlar, prinsiplar va yondashuvlarning yagonaligiga, davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi va o‘zaro aloqadorligiga hamda davlat xaridlari barcha subyektlarining hamkorligiga asoslanadi.

Davlat xaridlarining yagonaligi va yaxlitligi:
- davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy baza hamda uni bir xilda qo‘llash;
- davlat xaridlarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi barcha axborotni to‘plash, unga ishlov berish va uni tahlil qilishni hamda barcha manfaatdor shaxslarga undan foydalanishni ta’minlaydigan yagona, yaxlit va kompleks axborot tizimi mavjudligi;
- davlat xaridlariga oid hujjatlarni birxillashtirish;
- xalqaro standartlarga uyg‘un tarzda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) standartlashtirilgan yagona milliy klassifikatorini joriy etish;
- davlat xaridlarini rejalashtirish va amalga oshirishni, davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarni tuzish va ijro etishni, monitoringni va nazoratni amalga oshirishni, nizolar hamda kelishmovchiliklar ustidan shikoyat qilish va ularni ko‘rib chiqishni, davlat xaridlari subyektlarining kasbiy mahorati darajasi va mas’uliyati oshirilishining tashkil etilishini ta’minlovchi yagona infratuzilmaning mavjudligi bilan ta’minlanadi.

## Korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik prinsipi

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo‘ladi.

Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta’minlashi kerak.

Davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik:
- insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanilishini;
- monitoring va nazorat o‘tkazishning, shu jumladan, ichki monitoring va nazorat o‘tkazishning samarali tizimi yaratilishini;
- ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborotning ochiq manbalarida e’lon qilib borilishini;
- davlat xaridlari tartib-taomillari ushbu Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o‘tkazilishini ta’minlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatdir.

Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek, xarid komissiyasining a’zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfa-atlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rinishlarining oldini olishi shart;

- har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoki mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotning oshkor qilinishini kafolatlashi kerak.

Mavjud bo'lgan yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar topgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarini hamda davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi axborotlarni olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni ko'rilgan choralar to'g'risida xabardor qilishi shart. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi axborotni olgach, ushbu Qonunga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga tegishli axborotni kiritishi shart.

Davlat buyurtmachisining yoki davlat xaridlari elektron tizimi operatorining xodimi o'zining davlat xaridlari ijrochilari yoki har qanday boshqa shaxs bilan munosabatlarida, agar bunday axborotni oshkor etmaslik davlat xavfsizligi manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa yoki agar bunday axborotning oshkor etilishi qonunchilikka zid bo'lsa, ularga rioya etilishini ta'minlashga monelik qilsa, davlat xaridlari subyektlarining qonuniy manfaatlariga zarar yetkazsa yoxud insofli raqobatga to'sqinlik qilsa, agar davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bunday axborotni oshkor etish to'g'risida qaror qabul qilmasa, hech bir axborotni oshkor etishga haqli emas.

Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bunday axborotni oshkor etish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, ushbu qarorning shartlariga rioya etiladi.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etib, uning xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etishi bilan bog'liq taklifda o'zi ko'rsatgan barcha ma'lumotlarning e'lon qilinishiga rozilik bildiradi.

O'tgan yilgi ko'rsatkichlarni oladigan bo'lsak, tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlariga bo'lgan qiziqishi ortmoqda. Davlat xaridlari ochiqlanyapti. Barcha ma'lumotlar ochiq va shaffofligi ta'minlanmoqda. Tizimdagi xaridlar ommaviy axborot vositalarida yoritilmoqda. Uni soddalashtirish bo'yicha davlat buyurtmachilari va ishtirokchilarining bilim ko'nikmasini oshirish borasida yaxshi qadamlar tashlangan. Moliya vazirligining O'quv markazida elektron platforma yaratdik. Unda har bir ishtirokchi ro'yxatdan o'tib, bilimini oshirish mumkin. Tizim haqida barcha ma'lumotlar joylangan. Yakunida test asosida tegishli malakaviy hujjatni olish mumkin. O'tkazilayotgan tadbir, forum va uchrashuvlar davlat xaridlari bo'yicha keng tushunchalar berishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tizimda beshta xarid turi, ya'ni elektron do'kon, auksion savdolari, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolari asosida xaridlarni amalga oshirish mumkin. Bu raqobatli usul hisoblanadi. Bundan tashqari, to'g'ridan to'g'ri xaridlar faoliyati ham mavjud. Elektron auksion va elektron do'kon orqali shartnomalar tuzish avtomatlashtirilgan. Bu jarayonda inson omili yo'q. Keyingi yillarda tizimni to'liq avtomatlashtirishni rejalashtirgan.

Raqobat xarid orqali amalga oshirilgan xaridlar natijasida iqtisod qilingan mablag'lar 2023-yil hisobiga 8,2 trln so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatgich barcha elektron sadolarni o'z ichiga olgan holatda budjet va koorporativ buyurtmachilar kesishmasida.




3-rasm: Raqobatli xarid turlari orqali amalga oshirilgan xaridlar natijasida iqtisodiy qilingan mblag'lar [10]
Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti ma'lumoti.

Davlat buyurtmachilari 2 guruhga ajratilgan: budjet buyurtmachilari va korporativ buyurtmachilar. Budjet buyurtmachilari – davlat organlari, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan budjet mablag‘larini oluvchilar, davlat maqsadli jamg‘armalari. Korporativ buyurtmachilar – davlat korxonalari, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, ustav fondining 50 foizi va undan ortig‘i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar [11].

Elektron do‘konda:

- bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha) qiymatdagi tovarlarning;
- Elektron do‘kon orqali budjet buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha (korporativ buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha) amalga oshirilishi mumkin.

Auksion faqat elektron shaklda o‘tkaziladi.

Auksionda ishtirok etish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga e’lon joylashtiradi.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon u amalga oshirilishidan kamida besh ish kuni avval joylashtirilishi kerak.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- davlat buyurtmachisining nomi va manzili;
- auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o‘tkaziladigan davr);
- auksion predmetining boshlang‘ich narxi;
- auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi);
- tovarning miqdori;
- tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;
- tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);
- tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;
- tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to‘g‘risidagi talab;
- zarur bo‘lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi talab;
- tovarning o‘ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

## Eng yaxshi takliflarni tanlashni o‘tkazish mezonlari

Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g‘olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo‘ladi;
- tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo‘lgan miqdorni tashkil etadi.

## Tanlashni o‘tkazishda xarid komissiyasi

Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Tanlashni o‘tkazishda xarid komissiyasi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Tanlash vositasidagi davlat xaridi to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra – uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma’lum qilinadi.

Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagi axborotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- tanlashni o‘tkazish shakli;
- tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi;

- tanlash o‘tkaziladigan joyning manzili;
- ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar;
- davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;
- ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;
- taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

## Tender o‘tkazish mezonlari

Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;
- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorni tashkil etadi.

Tender majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

To‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.
- Yuqoridagilardan kelib chikkan holda, shuni ko‘rish mumkinki, moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi, ochiqlik va shaffoflik, raqobat va xolislik, mutanosiblik, davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi, korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplariga asoslangan va bu prinsiplar barcha bosqichlarida qo‘llanilib kelinmoqda.




4-rasm: Tovar (ish, xizmat)lar toifalar kesimida budjet buyurtmachilarining xaridlari [10]

Manba: imv.uz rasmiy sayti yil yakuni bo‘yicha ma’lumolar

Ma’lumotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2023-yil davomida budjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshirgan davlat xaridlari barcha tarmoq va sohalarda xarajatlarda keng tatbiq etilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Agar davlat xaridlarini respublika miqiyosida viloyatlar kesimada olsak, 5-rasmdan xaridlar miqdorini so‘m shaklida ko‘rib chiqsak 2023-yil holatiga bu ko‘rsatgichlar umumiy respublika bo‘yicha 1 505 588 trln so‘mni, shundan, Toshkent shahri 393 050 trln so‘m ya’ni, 39.6 foiz bilan oldinda.




5-rasm: Hududlar kesmida davlat byurtmachilarining xaridlari [10]

Manba: imv.uz rasmiy sayti yil yakuni bo'yicha ma'lumolar

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida yirik davlat korxonalari davlat xaridlari tizimi bilan qamrab olindi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni bilan 2022-yil 1-yanvardan elektron tanlash va tender savdolari elektron shaklda amalga oshirish belgilandi. 2023-yilning yanvaridan boshlab shu tizimni yo'lga qo'yildi.

Maxsus axborot portali vakolatli organ tomonidan yuritiladigan, davlat xaridlari amalga oshirilishi to'g'risidagi e'lonlar, davlat xaridlarining yakunlari, ishtirokchilarning takliflari haqidagi axborotni va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa axborotni elektron shaklda ko'zdan kechirishni, shuningdek, amalga oshirilgan elektron davlat xaridlari to'g'risida davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari tomonidan kiritiladigan (yuboriladigan) axborotni to'plashni ta'minlovchi veb-saytdir (maxsus elektron platforma).

Eng asosiy va muhim afzallik shundaki, davlat xaridlari bo'yicha barcha operatsiyalar Elektron raqamli imzodan foydalangan holda buyurtmachining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi. Bu esa, O'zRTXBga kelish majburiyatidan ozod qiladi ya'ni, davlat xaridlarida ishtirok etishingiz uchun qog'oz shaklidagi hujjatlar talab etilmaydi, barcha operatsiyalar – ro'yxatdan o'tishdan tortib to tovarni sotish yoki qabul qilib olishgacha bo'lgan jarayon elektron tarzda amalga oshiriladi.

6-jadval: Budjet buyurtmachilarining operatorlar kesimida amalga oshirgan davlat xaridlari [12], mlrd so'm

| | Ko'rsatkichlar | 2021-y | 2022-y | 2023-y |
|---|---|---|---|---|
| **Budjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshirgan xaridlar** | | **57 007,7** | **69 590,0** | **76 971,2** |
| 1 | O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi AJ (xarid.uzex.uz) | 47 578,6 | 56 524,6 | 55 206,0 |
| | Budjet buyurtmachilarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | 83,5 | 81,2 | 71,7 |
| 2 | XT-Xarid texnologiyalari MJCH (xt-xarid.uz) | - | 24,3 | 289,7 |
| | Budjet buyurtmachilarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | - | - | 0,4 |
| 3 | Raqamli transformatsiya markazi DK (cooperation.uz) | 361,0 | 228,6 | 656,9 |
| | Budjet buyurtmachilarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | 0,6 | 0,3 | 0,9 |
| 4 | Qurilish sohasida axborot kommunikatsiya-texnologiyalarni rivojlantirish markazi DM (tender.mc.uz) | 9 068,1 | 12 812,5 | 20 818,6 |
| | Budjet buyurtmachilarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | 15,9 | 18,4 | 27,0 |

Manba: imv.uz rasmiy sayti yil yakuni bo'yicha ma'lumolar

Davlat xaridlarini budjet buyurmachilarning 2021-2023-yil davomida amalga oshirgan davlat xaridlarini operatorlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak 6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2021-2023-yil davomida korporativ buyurtmachilar jami 57 007.7 mlrd. so'mdan 76 971.2 mlrd so'm ko'rsatkichi bilan o'sgan. Eng katta ulush 83.5–71.7 foiz ko'rsatkichlari bilan budjet buyurtmachilari tomonidan O'zbekiston respublika tovar xom ashyo birjasi AJ (xarid.uzex.uz) operatori xizmatlaridan foydalanib kelmoqdaligini ko'rishimiz mumkin.

7-jadval: Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalarining operatorlar kesimida amalga oshirgan davlat xaridlari [12], mlrd. so'mda

| Ko'rsatkichlar | | 2021-y | 2022-y | 2023-y |
|---|---|---|---|---|
| **Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirgan xaridlar** | | **90 380,4** | **134 953,2** | **176 341,2** |
| 1 | O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi AJ (xarid.uzex.uz) | 80 450,2 | 113 377,4 | 151 490,9 |
| | Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | 89,0 | 84,0 | 85,9 |
| 2 | XT-Xarid texnologiyalari MJCH (xt-xarid.uz) | 705,4 | 9 958,2 | 11 076,7 |
| | Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | 0,8 | 7,4 | 6,3 |
| 3 | Raqamli transformatsiya markazi DK (cooperation.uz) | 9 074,7 | 11 617,6 | 13 773,6 |
| | Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | 10,0 | 8,6 | 7,8 |
| 4 | Qurilish sohasida axborot kommunikatsiya-texnologiyalarni rivojlantirish markazi DM (tender.mc.uz) | 150 | | |
| | Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalarining jami xaridiga nisbatan ulushi, % | 0,2 | | |

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti ma'lumoti

Davlat xaridlarini budjet va korporativ buyurmachilarning 2021-2023-yil davomida amalga oshirgan davlat xaridlarini operatorlar kesimida ko'rich chiqadigan bo'lsak 7-jadvallardan ko'rinib turibdiki, 2021-2023-yil davomida korporativ buyurtmachilar jami 90 380.4 mlrd. so'mdan 176 341.2 mlrd so'm ko'rsatkichi O'zbekiston respublikasi tovar xom ashyo birjasi 89-85.9 foiz ulushida.

2021-2022-yillar mobaynida Tovar xom ayosh birjasi sayti, ya'ni dxarid.uz saytida budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar ishtirok etishgan, Exarid.uz saytida esa mudofa majmuiy va huquqni muhofaza qilish organlariga tashkilotlari o'z faolityalarin olib borishgan.

Lekin 2023-yil yanvar oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti tomonidan xarid.uzex.uz portali yaratildi va o'z faoliyati boshladi. Bu portal o'z o'rnida ikki saytni birlashtirgan va barcha turdagi savdolarnini o'z ichiga olgan. Va o'z o'rnida barcha soha vakillari o'z xaridlarini amalga oshirib kelishmoqda. Shu o'rinda tadbirkorlar uchun ham qulaylik va afzalliklari ko'p [13].

## XULOSA

Mamlakatimizda davlat va korpopativ xaridlari mexanizmini yanada takomillashtirish hamda tender savdolarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha izchil hamda kompleks say-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron savdolar joriy qilindi, Respublika tovar-xom ashyo birjasi maxsus axborot portali yaratildi, tovar (ishlar, xizmatlar) xaridi bo'yicha, jumladan, investitsiya loyihalari doirasida ko'p pog'onali idoralararo tender komissiyalari tuzildi.

Davlat xaridlari tizimi orqali sarflanayotgan mablag'larning optimal tarzda rejalashtirilganligi, haqiqatga maqsadli yo'naltirilayotganligi, yuqori darajada iqtisodiy samara keltirishi, makroiqtisodiy o'sishga xizmat qilishi va pirovardida aholining turmush faravonligini yaxshilashga xizmat qilishi har qanday davlat va jamiyat uchun dolzarb ahamiyatiga egadir. Davlat xaridlari tizimi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, budjet tizimi budjetlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xaridlar g'aznachilik tizimi orqali nazorat qilinadi va monitoring qilib boriladi.

G'aznachilik organlari davlat xaridlari tizimini nazorat qilishda dastlabki va joriy nazoratni amalga oshiradi. Budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar ehtiyojlari uchun xaridlarni amalga oshirishda mol yetkazib beruvchi bilan sharnoma tuzishadi, mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirishi uchun g'aznachilik tizimida tekshirib ro'yxatdan ro'yxatdan o'tkazishi zarur, bu jarayonda tuzilgan shartnomaning belgilangan qonuniy-huquqiy hujjatlarga mos kelishi, shartnomadagi narx-navoning sun'iy oshirilmaganligi, raqobat va shaffoflik mezonida



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

mos holda tuzilganligi ko‘rib chiqiladi. Umumiy olganda, G‘aznachilik organlari budjetdan olinadigan xaridlarining har bir jarayonini nazoratini amalga oshiradi.

Davlat xaridalarini islox qilinish jarayoninin 2020-2023-yillar kesishmasida ko‘rib chiqsak: amalga oshirilgan davlat xaridlari jami 124 089 mlrd. so‘mni YAIMga nisbatan ulushi 20.5 foiz, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 253 312 mlrd. So‘mni YAIMga nisbaian ulushi 23.8 foiz bo‘ldi. Bundar ko‘rinib turibtiki davlat xaridlari tizimida olib borilayotgan islohatlar o‘z nratijalari bermoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni shakllantirish lozim:

- Mahfiy ko‘rinishga ega bo‘lgan budjet tashkilotlari korporativ birja saytida budjet buyurmachisi maqomida ro‘yxatdan o‘tishga imkon yo‘qligi va budjet tashkiloti korporativ maqom bilan davlat xaridlarida ishtirok etib kelayotganidir.
- Bu o‘z o‘rnida budjet tashkilotlari uchun bepul xizmatlar pullik bo‘lishiga olib kelmoqda. Ya’ni budjet tashkiloti elektron magazin va auksionllarda xaridilarini amalga oshirish uchun budjetdan tashqari jamg‘armalaridan brokerlik xizmatlariga budjet xaridlari uchun to‘lovlarni amalga oshirib kelmoqda.
- “Insofsiz tadbirkor” ya’ni shartnoma shartlarini o‘z vaqtida yoki bajarishdan butkul bosh tortish holatlari oxirgi paytlarda tez-tez takrorlanib kelmoqda. Bunday holatlar budjet tashkilotlari faoliyatiga salbiy ta’sir etadi. Davlat xaridlarida ishtirok etib kelayotgan tadbirkorlarga bunday holatlarda javobgarlikni oshirish, jarimalar miqdorini ham oshirish taklifi ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021-y. O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni. lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallanganiyangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga sharh.
3. D.Sholdarov “Development of the education system in the digital economy on the basis of public-private partnership” International Scientific Journal of Finance and Accounting, 2021, №. 2.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. lex.uz›docs/5867722
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni. lex.uz›docs/5459107
6. 2018-yil 27-sentyabr kuni 3953-sonli O‘zbekiston respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. lex.uz›docs/3920651
7. Андреева Л.В. закупки товаров для федеральнкх государственнкх нужд: правовое регулирование. М.:Волтерс Клувер, 2009. С. 24.
8. Стоян В. И. Казначейское обслуживание бюджетов по доходам в Украине // сорник материалов. 2012. С. 145
9. A. To‘ychiyev, TMI magistranti D. Azzamova “Davlat xaridlarini amalga oshirishda g‘aznachilik tizimining o‘rni va ahamiyati.
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti ma’lumoti
11. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrdagi “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 734-son Qarori. lex.uz›ru/docs/6333350
12. imv.uz rasmiy sayti yil yakuni bo‘yicha ma’lumolar.
13. Sholdarov, D., & Navruzova , G. (2023). Davlat sektorida ichki audit xizmatining boshqa nazorat organlari bilan o‘zaro aloqadorligi. Educational Research in Universal Sciences, 2(17 SPECIAL), 564–570.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL:  30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.